

ABDULLA QODIRIYNING “BAXTSIZ KUYOV” ASARIDA IJTIMOIIY MUAMMOLAR TALQINI

Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti

O‘zbek tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Shabunaliyeva Himoyatxon O‘tkirbek qizi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” pyesasi badiiy-estetik hamda g‘oyaviy jihatdan atroflicha tahlil qilinadi. Asarda aks etgan ijtimoiy muammolar, xususan, majburiy nikoh, patriarxal munosabatlar va shaxs erkinligi masalalari ochib beriladi. Muallifning realistik tasvir usuli, obrazlar tizimi, konflikt qurilishi hamda dramaturgik mahorati ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, asarning jadid adabiyoti kontekstidagi o‘rni ham aniqlanadi.

Kalit so‘zlar:drama, jadid adabiyoti, majburiy nikoh, realizm, konflikt, obraz, dramaturgiya, ijtimoiy tanqid

XX asr boshlarida o‘zbek adabiyoti tub burilish davrini boshdan kechirdi. Bu davrda shakllangan Jadid adabiyoti millatni uyg‘otish, ijtimoiy ongini rivojlantirish va eskicha qarashlarni isloh qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Bu davr adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri Abdulla Qodiriy bo‘lib, uning “Baxtsiz kuyov” dramasi jamiyatdagi eskicha qarashlar va zararli urf-odatlarini keskin tanqid qiladi. Asar Turkiston hayotidan olingan bo‘lib, unda oddiy inson taqdiri orqali katta ijtimoiy muammo yoritiladi.

Adibning “Baxtsiz kuyov” pyesasi uning dramaturgiya sohasidagi muhim tajribalaridan biri bo‘lib, unda jamiyat hayotidagi dolzarb muammolar badiiy talqin etiladi. Ushbu maqolaning maqsadi — mazkur asarning badiiy-g‘oyaviy xususiyatlarini chuqur ilmiy tahlil qilishdir.

To‘ylar, turli marosimlar bilan bog‘liq muammolar, isrofgarchilik va dil xiraliklar hamma vaqt asosiy muammo bo‘lib kelgan. Bunga asosiy sabab, insonlarning tor dunyoqarashi, atrofidagi odamlarning gapiga qarab ish qilishi va albatta haddan ortiq urf-odatlarga berilishidir. Bunday insonlar nafaqat o‘zini balki boshqalarni ham qiyin vaziyatda qoldirishi, hatto hayotiga zomin bo‘lishi ham mumkin. Jadidchilik harakatining ilk namoyondasi bo‘lgan Abdulla Qodiriy o‘zining “Baxtsiz kuyov” nomli dramasida aynan shu kabi muammolarni ko‘taradi.

“Baxtsiz kuyov” pyesasining markazida inson taqdiri va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlar turadi. Asarda majburiy nikoh muammosi orqali inson erkinligi, shaxsiy tanlov huquqi masalalari ko‘tariladi. Drama markazida yetim yigit Solihning taqdiri turadi. U amakisi va jamiyat bosimi ostida uylanishga majbur bo‘ladi.

To'y uchun ortiqcha sarf-xarajatlar va "olug'-solug'" talab qilinishi natijasida Solih katta qarzga botadi. Qarz bosimi, ijtimoiy sharmandalik va iqtisodiy qiyinchiliklar oxir-oqibat fojeaga olib keladi: Solih va uning rafiqasi Rahima o'z joniga qasd qiladi. Shu tariqa asar dramatik kulminatsiya orqali jamiyatdagi muammolarni ochib beradi. Asarning asosiy g'oyasi – to'y marosimlaridagi ortiqcha dabdaba va isrofgarchilikni tanqid qilishdir. Fayziboy va domla-imom kabi obrazlar orqali jamiyatda shakllangan zararli an'analar ko'rsatiladi. Ellikboshi esa muallif g'oyasini ifodalovchi ijobiy obraz sifatida chiqadi. Ellikboshi tomonidan aytilgan fikrlar orqali muallif shunday xulosaga keladi: ortiqcha urf-odatlar inson hayotini izdan chiqaradi va fojeaga olib keladi. Inson baxti majburiy emas, erkin tanlovga asoslanishi kerak; eskicha urf-odatlar ko'plab fojealarga sabab bo'ladi; jamiyat taraqqiyoti uchun yangicha fikrlashdir. Bu jihatlar Jadid adabiyotining asosiy g'oyaviy tamoyillari bilan hamohangdir.

Solih kambag'al, yetim yigit bo'lgani sababli jamiyat talablariga moslashishga majbur bo'ladi. Boy va qarz tizimi orqali iqtisodiy zulm tasvirlanadi. Boyning foizli qarz berishi va garov shartlari o'sha davr ijtimoiy muhitining real ko'rinishidir. Abdulla Qodiriy asarda realistik uslubdan foydalangan holda voqealarni tabiiy va ishonarli tarzda tasvirlaydi. Qahramonlarning ruhiy kechinmalari, ichki iztiroblari hayotiy detallar orqali ochib beriladi. Bundan tashqari, asarda dramatism kuchli. Dialoglar orqali konflikt ochiladi. Qahramonlar nutqi ularning ijtimoiy mavqei va dunyoqarashini ochib beradi. Fojeaviy yakun esa asarning ta'sirchanligini oshiradi.

Abdulla Qodiriyning ushbu pyesasi Jadid adabiyotining muhim namunalaridan biri hisoblanadi. Unda ma'rifatparvarlik, ijtimoiy tanqid va yangilanish g'oyalari uyg'unlashgan. Asar o'zbek dramaturgiyasining shakllanishida ham muhim bosqich bo'lib xizmat qilgan.

Xulosa

"Baxtsiz kuyov" pyesasi o'zbek dramaturgiyasining rivojida muhim o'rin tutadi. Abdulla Qodiriy ushbu asar orqali jamiyatdagi dolzarb muammolarni ko'tarib chiqib, inson erkinligi va baxt masalasini markazga qo'ygan. Dramada tarbiyaviy jihat kuchli talqin etilgan. Yoshlarning mustaqil fikrlashi, o'z hayoti uchun o'zi javob berishi, kattalar esa farzandlarning fikrini hurmat qilishi lozimligi haqida chuqur xulosa qilamiz. Bu asar o'quvchilarni qadimiy odatlarga ko'r-ko'rona ergashmasdan, adolat, insof va shaxsiy huquqlarga asoslangan holda hayot tarzini tanlashga undaydi. Bu asar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Nikoh masalalarida majburiylik, manfaatga asoslanish kabi illatlar jamiyatimizda hanuz uchramoqda. Abdulla Qodiriyning ushbu asari har bir kitobxonni oilaviy hayotning poydevori bo'lgan muhabbat, o'zaro hurmat va kelajak uchun mas'uliyatli qarorlar haqida chuqur mushohada qilishga undaydi.

Shu bois "Baxtsiz kuyov" dramasi o'zbek adabiyotida faqat tarixiy qadriyat sifatida emas, balki bugungi kunda ham dolzarb pand-nasihati manbasi sifatida

qadrlanadi. Bu drama orqali bir shaxsning fojiasi emas balki butun bir davrning fojiasi ko'rsatiladi. "Baxtsiz kuyov" dramasi o'zbek adabiyotida ijtimoiy tanqidning yorqin namunalaridan biridir. Asarda ko'tarilgan muammolar bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sobir Mirvaliyev. O'zbek adiblari. O'zbekiston fanlar akademiyasining "Fan" nashriyoti. – Toshkent: 1993.
- 2.Abdulla Qodiriy. Baxtsiz kuyov. Cho'lpon nashriyoti. Toshkent: 2004.
- 3.Abdulla Qodiriy. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005.
- 4.Ozod Sharafiddinov. Ijod olami. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
- 5.Naim Karimov. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
- 6.Begali Qosimov. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.